

QURILISH MATERIALLARI SANOATI TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH UCHUN KATTA IMKONIYATLAR YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni qurilish materiallari tarmog‘ini rivojlantirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi sakkiz yilda mamlakatimiz aholisi 6 million nafarga ko‘paydi. Shunga mos ravishda yangi uylar, yo‘llar va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish ko‘lami kengayib bormoqda. O‘tgan davrda 210 million kvadrat metr turar va noturar joylar foydalanishga topshirildi. Aholi uchun 565 mingta, avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko‘p xonadon qurildi.

Qurilish materiallarining sanoati uchun ham katta imkoniyatlar yaratildi. Uning hajmi so‘nggi sakkiz yilda 4 barobar o‘shib, joriy yilda 53 trillion so‘mga, eksporti esa 1,1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Eng muhimi, bu tarmoq Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm va Jizzax viloyatlarining ilgari sanoati bo‘lmagan tumanlarida ish o‘rni va daromad manbai yaratadigan katta “drayver” sohaga aylandi.

Shu bilan birga, sohada mahsulotlar sifati va standartlarga rioya etish, logistika masalalari, yangi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolayotgani qayd etildi.

Jumladan, PVX-quvur, fittinglar, pardozbop tosh va qurilish oynasi ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar mavjud bo‘lsa-da, 2024-yilda ushbu mahsulotlar katta

hajmda import qilingani ko‘rsatib o‘tiladi.

Taqdimotda kelgusidagi asosiy rejalar bayon qilindi.

Xususan, tarmoqda 2,4 milliard dollarlik 112 ta loyihani amalga oshirish, ular orqali 13,5 mingta ish o‘rinlarini yaratish rejalashtirilgan. Strategik ahamiyatga ega 110 million dollarlik yana 5 ta yirik loyiha amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda loyihalar portfelinii 3,5 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Prezidentimiz bu loyihalar har bir viloyat va tumanning mavjud zaxiralari, xomashyo bazasi va logistika imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi zarurligini ta’kidladi.

Qo‘shni mamlakatlarda 4 milliard dollardan ziyod qurilish materiallari bozori bor. Bundan tashqari, 26 mamlakatga 9 ta mahsulot eksportini keskin ko‘paytirish imkoni mavjud.

Mutasaddilarga hududlar va tarmoqlarning eksport imkoniyatlarini to‘liq ishga solib, tashqi bozorlarga chiqishni faollashtirish, eksportbop materiallar ishlab chiqarishni ko‘paytirish topshirildi.

Taqdimotda kaolin zaxiralaridan samarali foydalanish masalalari ham o‘rganildi.

Yurtimizda 1 milliard tonnadan ortiq kaolin bo‘lishiga qaramay, har yili millionlab dollarlik chinni import qilinayotgani qayd etildi. Shu bois, kelgusi yilda kaolinni chuqur qayta ishlash bo‘yicha 515 million dollarlik 40 ta loyihani amalga oshirish va 460 nafar mutaxassis tayyorlash rejalashtirilgan.

Tarmoqda energiya samaradorligini oshirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Bugungi kungacha 34 ta korxonada energiya auditining o‘tkazilishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg‘i miqdorining kamayishiga erishildi.

Bu ishlarni tizimli davom ettirib, ishlab chiqarilayotgan energiya tejoyvchi mahsulotlarning turini kengaytirish, qurilishda foydalaniladigan energiya tejamlor va ekologik mahsulotlarning ulushini kelgusi yili 25 foizga, 2030-yilga qadar esa 35 foizgacha yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Mahsulot sifati va xavfsizligini oshirishda ilm-fanning o‘rni muhimligi, olimlarimizning salohiyatidan kengroq foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Bu borada Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan hamkorlikda 4 ta ilmiy

loyiha amalga oshirilmoqda, Germaniya, Koreya va Turkiyadan olimlar jalb etilgan. Amaliyot va fan integratsiyasini kuchaytirish doirasida kelgusi yildan qurilish materiallari yo‘nalishidagi ilmiy loyihalarni moliyalashtirish uchun 30 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Korxonalarda raqamli boshqaruv va sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali tannarxni 5-10 foizga qisqartirish mumkinligi ta’kidlandi. Bunday tizimlar joriy etiladigan korxonalarni ko‘paytirish maqsadida ikki yil davomida 100 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi jarayonida qurilish materiallari sohasi ham xalqaro talablarga moslashtirilmoqda. O‘tgan davrda bu borada 125 ta xalqaro standart qabul qilindi. 2026-yilda buni 166 taga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Prezidentimiz belgilangan rejalarni amalga oshirish, yuqori sifati va xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

MINTAQA BIRLASHUVI – SHUNCHAKI SIYOSIY MAQSD EMAS, STRATEGIK ZARURAT

Demokratik islohotlarni yangi bosqichga olib chiqayotgan mamlakatlar inson huquqlari himoyasini kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, davlatning ochiq boshqaruvga asoslash, davlatning siyosiy tizimini yangilash borasida izchil sa’y-harakatlar yo‘lidan bormoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvini optimallashtirish natijasida qator ijtimoiy o‘zgarishlar yuz berayotir.



Davlatimiz rahbarining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasida mintaqamizda taraqqiyotning yangi va tarixiy ahamiyatiga ko‘ra chinakam birdamlik bosqichi boshlangani hamda qardosh xalqlar bilan o‘zaro ishonch va hurmat muhitini shakllantirishga qaratilgan teran fikrlar bayon etilgan.

Qayd etilganidek, qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun davlatlar darajasida zarur sharoit yaratilgan. Bu masalada mintaqada barqaror rivojlanishni ta’minlash va odamlarning kundalik hayotini yaxshilash uchun mavjud imkoniyatlardan birgalikda foydalanadigan umumiy makon yaratish maqsad qilingan. Mazkur jarayon umumiy qadriyatlardan kelib chiqib, ming yillar davomida og‘a-ini bo‘lib kelgan, tarixi va taqdiri tutash xalqlarimiz Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor masalalarni bamaslahat,

hamjihatlik bilan hal etayotgani mintaqa liderlarining yakdli fikrga ega ekanini bildiradi.

Bu masalada Prezidentimizning taklif va tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi ikki-uch oyda AQSHga ikki marta tashrif, UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o‘tkazilgan 43-sessiyasi, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi bunga yaqqol dalildir. O‘zaro ishonch, hurmat va bir-birini qo‘llab-quvvatlash ruhida o‘tkazilayotgan bu kabi sammitlar kelgusida mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining “**Bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yanada jips va hamjihat bo‘lib harakat qilishni taqozo etadi**”, degan fikri, ayniqsa, e‘tiborimni tortdi.

Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTON MODELII YIL YAKUNIGACHA KAMBAG‘ALLIK DARAJASI 6 FOIZGACHA KAMAYADI

38 million nufusli xalqimiz uchun farovon va to‘kis hayot yaratish bugun O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Kambag‘allik va ishsizlikka qarshi kurash bu borada muhim ahamiyatga ega. Ayni yo‘nalishdagi o‘zgarishlar miqyosiga haqqoniy baho berish uchun esa bundan o‘n yillar oldingi vaziyatni eslash lozim.

O‘sha paytda ijtimoiy hayot quyuq tuman ostida, kambag‘allik iborasi esa deyarli qo‘llanmas edi. Odamlar og‘ir sharoitda yashar, ammo rasmiy hisobotlarda bu muammo mavjud emasdek ko‘rinardi. Statistikada raqamlar yashirilar yoki haqqoniy voqealarni aks ettirmaydigan, hech narsani anglatmaydigan quruq ma’lumotlar berilardi. Millionlab oilalar

Islohot odimlari



og‘ir vaziyatda tirikchilik qilar, davlat ularni go‘yo ko‘rmasdi.

Moddiy yordamga ehtiyojmand oilalar ko‘pincha yordamdan chetda qolar, kambag‘allik muammosini kompleks hal

qiladigan institutlar mavjud emasdi. Muammo odamlarning o‘ziga tashlab qo‘yilgandi.

Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli bu muammo haqida ochiq-oydin gapirila boshlandi. Eng muhimi, mamlakatimizda

ayni yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar boshlab yuborildi. “Inson qadri uchun” tamoyili bu ishlarga asos bo‘ldi.

Davomi 2-betda

Mulohaza INSON KAPITALI: GLOBAL MEHNAT BOZORI ASOSI



Inson qadimdan sayohatga moyil bo‘lgan. Ba‘zan bu yo‘llar qishloqdan shaharga, ba‘zan mamlakatdan mamlakatga, ba‘zan esa insonning o‘zidagi qadriyatlarini qayta kashf etishga olib keladi. Zamonaviy dunyoda aksariyat insonlar tirikchilik, yaxshi yashash kabi omillar orqali migratsiya oqimini shakllantirmoqda.

Dunyoda o‘zgarishlar shiddati kuchaygan sayin migratsiya faqat ijtimoiy jarayon emas, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim hodisaga aylanib ulgirdi. Masalan, rivojlangan davlatlar tashqi ishchi kuchini jalb etish orqali sanoatini rivojlantirsa, boshqa davlatlar inson kapitalini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ichki barqarorlikni — ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirish imkoniga ega bo‘lmoqda. Ehtiyoj va taklif munosabati esa bu jarayonni global iqtisodiyotning muhim omillaridan biriga aylantirdi.

Ammo tangeaning ikkinchi tomoni bo‘lganidek, ko‘p holatlarda migrantlar noqonuniy ishga jalb etilib, adolatsiz

munosabatlarga duchor bo‘lmoqda. Shu bois, ularning huquqini himoya qilish masalasi har bir davlat uchun mas’uliyatga aylanmoqda. Inson qayerda bo‘lmasin, uning mehnat qilish, dam olish, sha’n va qadr-qiyofasini asrash huquqi daxlsiz bo‘lishi shart. Afsuski, ayrim mamlakatlarda migrantlar arzon ishchi kuchiga aylantirilayotgani, ular nohaq jazolar, pasportlarni olib qo‘yish, mehnat haqini to‘lmaslik va inson sha’nini kamstish kabilarga duchor bo‘lishi hali-hanuz uchrab turibdi. Bu faqat huquqiy muammo emas, balki insoniylik sinovidir.

Davomi 2-betda

Markaziy Osiyo hozir o‘zining yangi tarixiy bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu bosqichning mazmuni o‘zaro ishonch, hamjihatlik, ochiqlik va umumiy manfaatlariga tayanadigan yangicha siyosiy voqealidir. Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasi bu jarayonlar chuqur tahlil qilingani va mintaqani rivojlantirishning uzoq muddatli yo‘nalishlari belgilab berilgani bilan ahamiyatli.

Nuqtayi nazar

BARCHA UCHUN TENG QOIDALAR

HAMMAGA FOYDA KELTIRADI



Bugun Markaziy Osiyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar faqat geosiyosiy maydonda emas, balki iqtisodiy, ilmiy va texnologiyalar sohaslarida ham misli ko‘rilmagani yangilanishga asos bo‘lmoqda. Bu jarayonda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki har qanday savdo, har qanday kooperatsiya, har qanday xizmat yoki mahsulot ayirboshlash aynan texnik talablar va standartlarga asoslanadi.

Davlatlar o‘rtasida eksport-import operatsiyalari qanchalik ko‘payayotgan bo‘lsa, ularning o‘zaro texnik reglamentlari, logistika standartlari, xavfsizlik me‘yorlari va metrologik o‘lchash vositalari shunchalik uyg‘un bo‘lishi zarur. Bozorning ochilishi, integratsiya jarayoni, chegara orqali tovarlar harakati tezlashishi — bularning barchasi texnik infratuzilmaning barqaror ishlashiga bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari maqolasidagi asosiy g‘oyalar — mintaqaviy yaqinlashuv, strategik sheriklik, chegaralar ochiqligi, iqtisodiy hamkorlik, infratuzilmaviy loyihalar, suv-energetikadagi kelishuvlar, Afg‘oniston bilan bog‘liq yo‘nalishlar — barchasi texnik jihatdan tartibga solish tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi.

O‘zbekistonning texnik jihatdan tartibga solish tizimi faqat texnik reglament va standartlar to‘plamidan iborat emas. Bu — milliy iqtisodiyot xavfsizligi, ishlab chiqarish sifatini boshqarish, mahsulot va xizmatlar xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish, xalqaro savdo to‘siqlarini qisqartirish, investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladigan fundamental tizimdir.

Davomi 4-betda



2025-yil 21-noyabr, 242-son

SIYOSAT

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

YANGI O'ZBEKISTON MODELI

YIL YAKUNIGACHA KAMBAG'ALLIK DARAJASI 6 FOIZGACHA KAMAYADI

Islohot odimlari

Boshlanishi 1-betda

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, munosib ish o'rinlari ochish, oilalar daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlar qilindi. Barcha qaror va dasturlar aholi, xususan, yoshlar va ayollarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga yo'naltirildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kambag'allikka qarshi kurash umummilliy harakatga aylandi. Jahon banki va BMT institutlari bilan hamkorlikda xalqaro tajriba asosida kambag'allik mezonlari ishlab chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamlar

miqdori minimal iste'mol xarajatidan past bo'lmasligi aniq-tiniqu belgilab qo'yildi. Yangi tashabbuslar sinovdan o'tkazildi, dunyo amaliyoti o'rganildi. Natijada mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning Yangi O'zbekiston modeli yaratildi.

Manzilli ijtimoiy daftarlari joriy etildi. Ular ehtiyojmand oilalarni qamrab oldi. Jamiyatning barcha qatlamini ish bilan ta'minlash maqsad qilib qo'yildi. Mahalla kesimida ishlash tizimi yo'lga qo'yildi va u o'zini to'liq oqladi.

Har bir xonadon bilan individual reja asosida ishlandi. Oilalar daromadini oshirish uchun resurslar ajratildi. Har yili 2,5-3 milliard dollar mablag' mahallalarni obodonlashtirish, odamlar turmushini yaxshilash va tadbirkorlik



Marat JO'RAYEV, kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi o'rinbosari

infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Qishloq aholisining daromadini oshirish uchun paxta va g'alla maydonlari qisqartirildi. Aholiga yer ajratishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Bu yuz minglab odamlarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirishda muhim qadam bo'ldi. Faol tadbirkorlar ko'magida tomoqalarda yuqori daromadli ekinlar ekish va hosilni kafolatli sotish tizimi yo'lga qo'yildi. Shu tariqa har bir hududda aholini kambag'allikdan chiqarish va daromadini oshirish bo'yicha o'ziga xos tajriba shakllandi.

Mana shunday keng ko'lamli islohotlar va sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston 2030-yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish bo'yicha olgan majburiyatini belgilangan muddatdan oldin bajarishga intilmoqda. Ushbu maqsadga erishish

uchun mamlakatimizda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshirilmogda.

Davlatimiz rahbari raisligida 19-noyabr kuni kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ayni yo'nalishdagi ishlar yana bir bor tahlil qilindi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan davrda bu yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri tashkil qilib, mahallama-mahalla yurish orqali yangi tashabbuslarga yo'l ochildi, odamlar hayotini yaxshilashga mas'ul viloyat, tuman hokimlari hamda xodimlarning moddiy va texnik imkoniyatlari tubdan yaxshilandi.

Yig'ilishda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha joriy yilda kutilayotgan natijalar hamda 2026-yilgi rejalar muhokama qilindi.

Ayni paytgacha ehtiyojmand 302 ming oila kambag'allikdan chiqarilgani diqqatga sazovor. Zero, bu o'rta hisobda 1 million yurtodoshimiz xonadoniga fayz, qalbiga xotirjamlik kirib borganini bildiradi. Yil yakunigacha kambag'allik darajasi 6 foizgacha kamayishi kutilayotgani, joriy yilda ilk bor 1435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylangani esa katta natijadir.

Prezidentimiz bizga keyingi yilda ishsizlikni kamaytirish va kambag'allikni qisqartirishda loyihaviy yondashuvlar asosida ishlash topshirig'ini berdi. Haqiqatan, loyihaviy boshqaruv juda qulay tizim. 2026-yilda 1 million fuqaroni ish bilan ta'minlash va to'rt million kishining daromadini sezilarli oshirishni reja qilganmiz.

Keyingi yildan "Teng imkon — inklyuziv bandlik" loyihasi joriy etiladi. Bandlik jamg'armasidan ularga 30 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratish yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, kambag'allikka qayta tushish xavfi mavjud oilalarga beriladigan ijtimoiy yordam va imtiyozlar saqlab qolinadi. Ularga 6 oy mobaynida moddiy yordam va bolalar nafaqasi to'lanishi davom ettiriladi. Bog'cha va to'garak xarajatini qoplash, davolanish orderi berish kabi 110 ta ijtimoiy xizmat va yordamdan 12 oy davomida qo'shimcha foydalanish imkonini beriladi.

Bundan tashqari, og'ir hayotiy vaziyat sababli kambag'allikka tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni oldindan aniqlab, ularga manzilli yordam ko'rsatiladi.

MIRABBOS ABDULHAQOVICH MIRZAAHMEDOV

Milliy madaniyatimiz va san'atimizning atoqli namoyandasi, mashhur rejissyor va teleboshlovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Mirabbos Abdulhaqovich Mirzaahmedov shu yil 19-noyabr kuni 84 yoshida vafot etdi.

M.Mirzaahmedov 1941-yil 30-sentabrda Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tugatganidan so'ng Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)da kino va teatr san'ati aktyori mutaxassisligi bo'yicha tahsil oldi.

Mehnat faoliyatini O'zbekiston teleradiokompaniyasida rejissyor yordamchisi sifatida boshlagan iste'dodli san'atkor 60 yildan ziyod vaqt mobaynida "Yoshlar" tahririyati rejissyori, bosh rejissyori, "O'zbekiston" telekanalining oliy toifali rejissyori, "O'talar so'zi — aqlning ko'zi" ko'rsatuvining rejissyori va boshlovchisi kabi lavozimlarda samarali xizmat qildi. Uning bevosita rahbarligida dolzarb mavzu va janrlarda tayyorlangan eshittirish va ko'rsatuvlar, badiiy videofilmlar milliy ruhi, teran mazmuni, xalqchilligi bilan millionlab muxlislar qalbidan o'rin oldi. Ayniqsa, ustoz rejissyor tomonidan tasvirga olingan "Bahor qaytmaydi", "Izlayman", "Qalbingga quloq sol", "Bahs", "Uch ildiz", "Dunyoning ishlari" kabi asarlar o'z davrining yorqin telefilmlari sifatida madaniyatimiz xazinasidan munosib joy egalladi.

M.Mirzaahmedov o'zining nuroniy va donishmand qiyofasi, ko'p yillik bilim va tajribasi bilan markaziy telekanallarimiz orqali 40-yildan buyon namoyish etib kelinayotgan "O'talar so'zi — aqlning ko'zi" ko'rsatuviga yangicha ruh va mazmun olib kirdi hamda ushbu dastur



orqali jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarga jamoatchilik e'tiborini qaratish, el-yurtimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida oila va Vatanga muhabbat, o'dob-xloq, mehr-oqibat qo'yalarini targ'ib etishga katta hissa qo'shdi.

Butun umr doimo izlanib, xalqimizga siddiqdildan xizmat qilib kelgan zahmatkash ijodkor o'ziga xos mahorat va tajriba maktabini yaratib, ko'plab yoshlarga ustozlik qildi.

M.Mirzaahmedovning mamlakatimiz madaniyati va san'atini rivojlantirish yo'lidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni, "Mehnat shuhrati" va "Do'stlik" ordenlari bilan mukofotlandi.

Taniqli san'atkor, samimiy va kamtarin inson, yoshlarning mehribon ustози Mirabbos Mirzaahmedovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH.MIRZIYOYEV, T.NORBOYEVA, N.ISMOILOV, A.ARIPOV, S.TURDIYEV

Mehnat migratsiyasini tartibga solish va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali O'zbekiston global mehnat bozorida o'z o'rnini mustahkamlaydi, kelajak avlodlarga ilg'or tajriba va barqaror iqtisodiy imkoniyatlar qoldiradi. Shu bois, migratsiya faqat harakat emas, balki davlat va insonning bir-biriga bog'langan kelajagi masalasiga aylanmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, insonlarning iqtidori va malakasiga qarab ishchi kuchiga ehtiyoji bor davlatlarga yo'naltirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning xorijda ishlashi masalasi tasodif yoki yakka sa'y-harakatlar darajasidan chiqib, markazlashgan, tizimli va davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yilmoqda. Chunki migratsiya bugun bir insonning o'z ro'zg'orini ta'minlashga qaratilgan harakati emas, mehnat bozorining muvozanati va davlatning global mehnat maydonidagi mavqei bilan ham bog'liq. Shu maqsadda yurtimizda odamlarni chet elga tartibli, xavfsiz va aniq mexanizmlar asosida jo'natish borasida yangi qadamlar tashlanmoqda.

Agar ilgari yurtodshlarimiz ko'pincha past maoshli va xavfsizligi kafolatlanmagan ishlarga yo'l olgan bo'lsa, keyingi yillarda mehnat bozori diversifikatsiya qilinishi natijasida ular asosan yuqori maoshli va rasmiy ish o'rinlariga yo'naltirilmoqda.

Birgina misol orqali ham bu jarayonning ahamiyatini teran tushunish mumkin. Xorijda mehnat qilyotgan yurtodshlarimiz soni 2016-yildagidan kamaygan bo'lsa-da, ular yuborgan mablag' 3,8 milliard dollardan 2025-yilning o'n oyi yakuniga kelib, 15,8 milliard dollarga yetdi. Bu raqamlar vatandoshlarimiz mehnati va salohiyati orqali o'z mehnatining mevasini totayotganidan darak.

Keyingi yillarda dunyo mehnat bozorida malakali kadrlarga talab ortib bormoqda. Hozir yurtimizda xorijiy ish beruvchilar tomonidan 140 ming mutaxassis uchun rasmiy buyurtma mavjud. Ammo bu buyurtmalarga javob berish har bir mutaxassisning til bilishi, kasbiy mahorati va xalqaro mezonlarga mos tayyorgarligiga bog'liq. Shunday ekan, bu zanjirning uzviyiligi ta'minlashda xalqaro talablarni darajasida xorijda raqobatbardosh

INSON KAPITALI: GLOBAL MEHNAT BOZORI ASOSI

kadrlar tayyorlash maktabini shakllantirish muhimligi oydinlashib bormoqda.

Bu jarayonning ahamiyati iqtisodiy sohadan tashqari ma'naviy va madaniy jihatlariga ham bog'liqdir. Zero, har bir mutaxassis xorijda o'ttingan tajribasi bilan mamlakatga qaytganda yangi fikrlar, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni olib keladi. Bu insonning o'z salohiyatini sinashi, o'zini yangilashi va jamiyat rivojiga hissa qo'shishiga qaratilgan keng maydondir. Chet elda mehnat qilish inson uchun mas'uliyat, iroda va bilimni baholash imkonini hamdir.

Bundan tashqari, migratsiya jarayonining to'g'ri boshqarilishi davlatning strategik fikrlash qobiliyatini namoyon etadi. Chet elda faoliyat yuritgan fuqarolarning bilim va mahorati mamlakat kelajak salohiyatini belgilaydi. Demak, bu masala faqat iqtisodiy omil emas, balki xalq taqdiri, intellektual resurs va milliy istiqbolga ta'sir etuvchi muhim strategik yo'nalishdir.

Migratsiya orqali yuborilayotgan mablag'lar, orttirilayotgan tajribalar va shakllanayotgan bilimlar — raqamlar to'plami emas. Bu fuqarolarning shaxsiy va milliy salohiyatini namoyon etuvchi, mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlaydigan kuchli omildir. Shu bois, ushbu jarayonni tartibga solish, inson kapitalini rivojlantirish va har bir migrantning huquqini himoya qilish davlat



oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

18-noyabr kuni davlatimiz rahbari tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va migratsiya jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish masalalariga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Bugun mehnat migratsiyasiga oid xizmatlar tarqoqligi, fuqarolarni ortiqcha sarson-sargardonlikka uchrashi dolzarb

muammolardan biri hisoblanadi. Taqdimotda bu muammoni bartaraf etish maqsadida barcha jarayonlarni "yagona darcha" tamoyili asosida birlashtirish belgilandi. Toshkent shahrining Uchtepa tumanida Xorijga ishga tayyorlash markazi va Termizda Yagona migratsiya xizmatlari markazi ochilishi rejalashtirilgani e'lon qilindi.

Shuningdek, poytaxtimizning Yashnobod tumanida nemis va yapon tillariga ixtisoslashtirilgan zamonaviy o'quv



“Chetga ketgan har bir yosh — yurt salohiyati. Qaytgan har bir fuqaro esa yangi bilim, zamonaviy kasbiy standartlar va malakani olib keladi. Shu bois, mehnat migratsiyasi jarayonlari davlat siyosati bilan birgalikda inson huquqlari, huquqiy himoya va insoniy qadriyatlar mezonlariga asoslanishi shart.”

maktablari tashkil etilishi ham migratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va fuqarolarni malakali tayyorlash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholandi.

Bu tashabbuslarning ahamiyati shundaki, zamonaviy dunyoda faqat til bilish yetarli emas; mehnat madaniyati, kasbiy etika va global standartlarga tayyorlash ham asosiy talabga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu markazlar va maktablarda fuqarolarimizni xorijiy mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali va o'z salohiyatiga ega kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Migratsiya nafaqat iqtisodiy jarayon, balki insonning shaxsiy rivojlanishi, bilim va mahoratini oshirish imkoniyati hamdir. Shu bois, davlatning bu yo'nalishdagi tizimli ishlari fuqarolarning kelajakdagi salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyot va jamiyatning barqaror rivojiga hissa qo'shadi.

Mehnat migratsiyasi xizmatlarini raqamlashtirish ham eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bugungi kunda "Xorijda ish" platformasi orqali 25 turdagi xizmatlar taqdim etiladi va joriy yil boshidan 524 mingdan ortiq fuqaro undan onlayn foydalangan. Lekin xizmatlar hali to'liq raqamlashtirilgan emas. Shu bois, taqdimotda davlatimiz rahbari platformani sun'iy intellekt bilan boyitish, biometrik identifikatsiyani joriy etish, real vaqtda ish o'rinlarini kuzatish hamda masofaviy maslahat xizmatlarini

yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berdi. Shuningdek, 24/7 rejimda ishlaydigan situatsion markaz tashkil etish taklif qilindi.

Migratsiya jarayonida yuzaga keladigan xavflar jiddiy diqqat talab qiladi. Sohadagi ba'zi shaxslarning mo'maygina daromad va'dasiga ishonib, firibgarlik qurboniga aylanishlar uchrab turadi. Bunday holatlar inson huquqlarining xalqaro maydonda kamsitilishiga olib kelishi bilan birga har bir davlatning yangi chora-tadbirlar ko'rishi zaruratini ko'rsatadi. So'nggi yillarda yurtimizda xalqaro aeroportlarda interaktiv migratsiya infokiosklari o'rnatish, litsenziyasiz konsalting tashkilotlariga nisbatan jarimalarini oshirish va hatto Jinoyat kodeksida noqonuniy migratsiyani tashkil etish uchun javobgarlik kiritish masalalari o'rganilmoqda.

Chetga ketgan har bir yosh — yurt salohiyati. Qaytgan har bir fuqaro esa yangi bilim, zamonaviy kasbiy standartlar va malakani olib keladi. Shu bois, mehnat migratsiyasi jarayonlari davlat siyosati bilan birgalikda inson huquqlari, huquqiy himoya va insoniy qadriyatlar mezonlariga asoslanishi shart.

So'nggi yillardagi tizimli islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham fuqarolarni yuqori maoshli va rasmiy ish o'rinlariga yo'naltirish, xorijiy davlatlar bilan huquqiy shartnomalarni kengaytirish, mehnat migrantlari uchun xizmatlarni birlashtirish va raqamlashtirishdir. Bu ishlar nafaqat iqtisodiy foyda olib keladi, balki yurtimizning global maydondagi obro'sini mustahkamlash, milliy salohiyatini rivojlantirish va har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilish bilan ham bog'liqdir.

Ish isboti bilan deganlaridek, ushbu islohotlar samarasi o'zini allaqachon ko'rsatmoqda. Bugungi kunda aksariyat yurtodshlarimiz Yevropa davlatlari, shuningdek, boshqa rivojlangan mamlakatlarda ishlamoqda. Quvonchlisi shuki, ularning aksariyati og'ir mehnat bilan shug'ullanmay, balki intellektual va kasbiy salohiyati, malakasi orqali daromad topmoqda.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali O'zbekiston global mehnat bozorida o'z o'rnini mustahkamlaydi, kelajak avlodlarga ilg'or tajriba va barqaror iqtisodiy imkoniyatlar qoldiradi. Shu bois, migratsiya faqat harakat emas, balki davlat va insonning bir-biriga bog'langan kelajagi masalasiga aylanmoqda. O'zbekiston esa bu yo'lga qat'iyat bilan harakat qilib, har bir fuqarosining huquq va salohiyatini himoya qilishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

MINTAQA
BIRLASHUVI –SHUNCHAKI SIYOSIY MAQSAD EMAS,
STRATEGIK ZARURATUbaydulla MINGBOYEV,
O'zbekiston sudyalari
assotsiatsiyasi raisi,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan yurist

Boshlanishi 1-betda

Haqiqatan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugun hamkorlikni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zaruratdir. Qo'shnilarimizning yutug'idan faxrlansak, ular bizning barqaror rivojlanishimizni olqishladi, ta'minlasak, shundagina mustarak maqsadlarga erishgan bo'lamiz. Bir tanu bir jon bo'lib, birgalikda harakat qilsak, mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichiga yo'l ochib, shu kunga qadar

“ Davlatimiz rahbari mintaq mamlakatlari Prezidentlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirib, Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish borasida hali ko'p tashabbuslarni ilgari suradi. Bu kabi takliflar faqat yangi O'zbekiston va uning xalqi uchun emas, balki Markaziy Osiyodagi barcha xalqlarning umumiy maqsadi, tinchligi va farovonligiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM
O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

imkonsiz deb kelingan real muammolarni osonlik bilan bartaraf etamiz. Ana shundagina tashqaridan bo'ladigan xatarlarning har qanday ko'rinishiga umumiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda uzil-kesil javob bera olamiz.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan bog'liq biror-bir masala ochiq qolib ketmagan. Avvallari bizni ajratib turgan, yillar

davomida keskinlik manbai bo'lib kelgan chegara masalalarining do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylangani, kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab bo'lib kelgan mojaroli daryo va buloq suvlaridan erkin, umumiy foydalanishga o'tilgani, qarindosh-urug'chilik, qudandachilik rishtalari bilan bog'langan qo'shni mamlakatga borib kelishdagi viza masalalari hal etilgani — ularning barchasi dilimizdagi g'uborlarni yuvadi.

Bu ishlar o'z-o'zidan bo'lgan emas. Uning ortida mamlakatlarimiz yetakchilari tomonidan bugunni emas, ertani o'ylab qilinayotgan maqsadli muloqotlarning ro'yobi bor. Buni maqoladagi “Qo'shniçilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug'i...” degan fikr tamomila tasdiqlaydi, albatta.

Maqolani o'qir ekansiz, haqiqatan Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida degan xulosaga kelasiz. Chunki unda hech bir soha xususida shunchaki so'z yuritilmagan. Diplomatiya aloqalar, iqtisodiyot, sanoat, Markaziy Osiyoning yetakchi ayollari muloqoti, yoshlar platformasi tashkil etilgani, rektorlar va olimlar ishtirokida forumlar o'tkazilayotgani, o'zaro madaniyat yillari, ko'rgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari tashkil etilayotgani, eng muhimi, qardosh mamlakatlar o'rtasida aviaqatnovlar, temir yo'l hamda avtobus yo'nalishlari yo'lga qo'yilgani haqidagi ma'lumotlar har qanday kishini to'lg'inlantiradi.

Yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi sifatida xalqaro aloqalar tobora mustahkamlanib borayotgani ham e'tirof etilgan. Katta-katta davlatlar endi bitta

Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich: “Men avvalroq O'zbekistonga kelmay katta xatoga yo'l qo'yganim. Imkoningiz bo'ldimi, bu mamlakatga, albatta, keling!”.

2025-yil 29-oktyabr.

UNESCO Bosh konferensiyasi prezidenti Xondker Muhammad Talha: “Muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyevning faoliyati haqiqiy davlat arbobining yo'lidir. Kuchli bilim, donolik va mamlakat taqdiri uchun chuqur mas'uliyatni o'zida mujassam etgan O'zbekiston yetakchisi keng amaliy tajribasi va strategik qarashlariga tayanib, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini shakllantiradi oldi va uni jamiyat manfaatlarini yo'lga qat'iyat bilan amalga oshirib kelmog'ini”. 2025-yil 30-oktabr.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov: “UNESCO sessiyasining Samarqandda o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzining yuksak e'tirofidir. Bu butun Markaziy Osiyo mintaqasi madaniy, ma'naviy va gumanitar hamkorlik markazi sifatida tobora katta e'tirofga sazovor bo'layotganidan dalolat beradi. Samarqand shahri ilm, ma'rifat va ma'naviyat beshigi sifatida konferensiyaga alohida ramziy ahamiyat bag'ishlaydi. Bu O'zbekistonning sivilizatsiyalar o'rtasidagi ko'pri, tinchlik va hamjihatlik g'oyalarning markazi sifatidagi rolini yana bir bor namoyon etadi”. 2025-yil 31-oktabr.

Bu — yangi O'zbekiston va Prezidentimiz haqida keyingi 7-8 yoki 2-3 yil emas, oxirgi 2-3 oyda bildirilgan fikrlardan ayrimlari. Ochig'i, shu muddat oralig'ida dunyo jamoatchiligi e'tiboridagi shaxslar: Prezidentlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, nufuzli xalqaro ekspertlar tomonidan aytilgan, e'lon qilingan shunga o'xshash fikr va e'tiroflar yig'insa, bir kitobga sig'masligiga ishonchim komil. Gap aslida ularning ko'p yoki kamligi, hajmida ham emas, ahamiyatida.

Zero, bu e'tiroflar ko'plab muhim omillardan dalolat beradi. Birinchisi, mamlakatimizdagi ortga qaytnas tus olgan islohotlar to'g'ri va samarali ekan xalqaro miqyosda tan olinmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston tajribasi dunyoga namuna sifatida ko'rsatilyapti. Ikkinchisi, bunday ishonch yangi O'zbekistonda dunyoning ijtimoii-siyosiy, iqtisodiy, madaniy markazlardan biriga aylantirmoqda. Muhimi, bu jarayonlar o'zaro bog'liq holda yurtimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirishga puxta zamin yaratmoqda.

Darhaqiqat, bugun ijtimoii-iqtisodiy sohalaridagi tub islohotlar hisobiga mamlakatimiz taraqqiy etib, xalqimiz farovonligi ortmoqda. Yangi O'zbekiston Prezidentimiz boshchiligidagi dunyoga yuz burmoqda. Mintaqa, xalqaro siyosiy maydonda o'z so'ziga ega bo'lib, yangicha tashabbus va loyihalar bilan ko'pgina muammolarni hal etishda jonbozlik ko'rsatayapti. Shu yilning o'zida o'nlab xalqaro tadbir, mintaqaviy yig'ilish va forumlar aynan yurtimizdagi o'tkazilayotgani ham davlatimizning xalqaro nufuzi ortib borayotganini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu faol taraqqiyot shamoli xalqimizning kelajakka ishonchini mustahkamlab, dunyo davlatlari nigohini O'zbekistonga qaratishiga zamin yaratmoqda.



38 MILLION NUFUS

DUNYO NIGOHIDA
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONAziz MIXLIYEV,
mustaqil tadqiqotchi

rahbarlari mintaqadagi muammolarni bir yoqadan bosh chiqarib hal etishga kirishgan. Masalan, mintaqadagi azaliy muammolardan biri — suv-energetika tanqisligining oldini olish borasida o'zaro hamkorlikda qator loyihalarga qo'l urildi. Jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Qambarota GES-1 loyihasini birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlarcha hamkorlikning yorqin dalilidir. Toshkent va Bishkek o'rtasida Chashma bulog'idan birgalikda foydalanish to'g'risidagi kelishuv oqilona murosaga misol bo'la oladi. O'zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida Yovon va Fondaryo GESlarini qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida Bahri Tojik suv omborini vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish qarori olindi. Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolarni xavfni kamaytiradi.

Bugun mintaq har jihatdan bir butun qiyofani yaratmoqda. Dunyo siyosatiga maqsadlari bir yagona mintaq sifatida kirib bormoqda. Davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston” gazetasida chop etilgan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida qayd etilganidek, “Amaliy harakatlarni, kelajak uchun mas'uliyatimiz, yaxshi ko'rishchilik, do'stlik va o'zaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: Yangi Markaziy Osiyo tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo'lini tanlamog'da. Ramziy ma'noda aytganda, biz devor emas, ko'priq barpo etmoqdamiz”.

Jahon...

O'zbekiston bugun dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bilan yuqori darajada hamkorlik qilmoqda. Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk yillaridayoq o'zaro teng va manfaatli aloqalarga tayyor ekanini bildirtdi. Ushbu jozibali taklif va islohotlar samarasi dunyo nigohini O'zbekistonga qaratdi. Bu esa mamlakatimizga katta sarmoyalar oqimi kirib kelishi hamda turli bunyodkorlik ishlari jadallashishiga zamin yaratdi.

Shu yil yurtimizda bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti hamda to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ko'plab kelishuv va shartnomalar imzolandi. Ushbu tadbirlarda O'zbekiston — Yevropa hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Yoki bo'lmasa, davlatimiz rahbarining AQSHga tashrifida 100 milliard dollarlik kelishuvga erishilgani ham mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Bu natijalarga, albatta, davlatimiz rahbarining oqilona, samimiy, do'stona yuritiyatog'ini siyosatini zamin yaratmoqda. O'z navbatida, xalqaro siyosiy maydonda O'zbekiston imiji yaxshilanayapti. Buni O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT sessiyalarida ilgari surgan takliflari tezda hayotga tatbiq etilayotganida ham ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi jadal islohotlar yurtdoshlarimiz ishonchi, xalqaro tashkilotlar, mintaq va dunyo mamlakatlari rahbarlari va xalqning e'tiborini qozonmoqda. Bu esa yangi O'zbekistonni jadal sur'atda barpo etishimizga zamin hozirlayotir.

aholiga yanada qulaylik taqdim etmoqda.

Endi ijtimoii himoyaga muhtoj, nogironligi bor yurtdoshlarimiz xat-hujjatlarni qo'lliqib, turli idoralar eshigiga borayotgani yo'q. Mutasaddilarning o'zlari ularning uyiga kelyapti yoki turli platformalar orqali uydan chiqmasdan turib, turli ijtimoii ko'maklarni onlayn o'lvyapti. Bu qulaylik va imkoniyatlar O'zbekistonni ijtimoii davlatning yorqin namunalaridan biriga aylantiryapti.

Ishsizlikka qarshi kurash yo'lida ham yangicha qarash, o'zgarish va islohotlar kechdi. Bunda, birinchi navbatda, talabgorlar malakasini oshirish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, tadbirkorlik qobiliyati borlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi. Shu maqsadda monomarkaz, kovorking markazlar tashkil etildi. Startap loyihalar, kichik va o'rta biznes vakillari sarmoya ajratish orqali qo'llab-quvvatlandi. O'tgan davr mobaynida ta'lim bilan birga yoshlarni kasbga o'rgatish tizimi noldan yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu esa turli xalqaro reyting va e'tiroflarda o'z aksini topmoqda. Birgina misol, Barqaror taraqqiyot yechimlari tarmog'i (Sustainable Development Solutions Network)ning 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston barqaror rivojlanish indeksi bo'yicha 73,1 ball bilan 167 mamlakat orasida 62-o'rinni egalladi — ushbu mintaqadagi eng yaxshi natijalardan biri. Yurtimizda raqamlashtirish, ta'lim, ijtimoii himoya va ekologiya sohalarida yangi yondashuvlar faol joriy etilayotganini bildiradi.

Mintaqa...

Davlat rahbari qo'shni mamlakatlar bilan do'stona, kuchli hamkorlik aloqalarini tiklash yo'lida katta siyosiy iroda ko'rsatdi. Bugungi tahlikali zamonda men degan yutqazadi, biz degan yutadi deya birlashish, o'zaro hamjihatlikda taraqqiy etish davri kelganini bot-bot takrorladi. Quvonarlisi, bu tashabbus qo'shni yurtlar aholisi tomonidan katta xursandchilik bilan qarshi olindi, davlat rahbarlari tomonidan esa xayrixohlik bilan qabul qilindi. Natijada ko'p yillardan beri xalqlarimiz o'rtasiga sovuqchilik tushirib turgan, mintaqadagi har bir mamlakatning taraqqiyotiga sezilarli zarar yetkazgan chegara muammolari uzil-kesil hal etildi.

Yaqin-yaqingacha imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi bugun real holatga, bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar esa do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylandi. 2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi shartnoma va Xo'jand deklaratsiyasi imzolanganini tarixiy ahamiyatiga molik hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin. Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, o'nlab yillar davomida keskinlik manbai bo'lib kelgan masalaga nuqta qo'yildi.

Bugun Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat

Prezidentimiz faoliyatining ilk yillaridayoq taraqqiyotga to'siq bo'lgan ijtimoii masalalarni hal etish borasida salmoqli tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, valyuta bozorini erkinlashtirish, bolalar mehnati, majburiy mehnatga barham berish, aholi murojaatlari bilan ishlashning yangicha tizimi, kambag'allikka qarshi kurash borasidagi tashabbuslar ortga qaytnas islohotlarning debochasi bo'ldi.

Hudud...

Prezidentimiz faoliyatining ilk yillaridayoq taraqqiyotga to'siq bo'lgan ijtimoii masalalarni hal etish borasida salmoqli tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, valyuta bozorini erkinlashtirish, bolalar mehnati, majburiy mehnatga barham berish, aholi murojaatlari bilan ishlashning yangicha tizimi, kambag'allikka qarshi kurash borasidagi tashabbuslar ortga qaytnas islohotlarning debochasi bo'ldi.

O'sha paytlarda ertangi kuni qanday bo'lishi haqida bosh qotirayotgan ayrim yurtdoshlarimiz bugun yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi bilan yashamoqda. Hayotga ishonchi, kelgusi rejalarini, orzu-umidlari butkul o'zgargan.

Davlatimiz rahbari xalqimizni bu g'oya ostida qanday birlashtirdi, deysizmi? Juda oddiy, odamlarning hayotdan rozi bo'lib yashashiga erishishni bosh maqsad qilib qo'yib, ular imkonsiz deb o'ylagan ayrim muammolarga butunlay barham berdi. Yangi tashabbus va loyihalar bilan xalqimiz turmushini yaxshiladi. Korruptsiya va turg'unlik botog'iga botgan ta'lim, sog'liqni saqlash, biznes va tadbirkorlik kabi sohalarini tubdan isloh qilib, taraqqiyot sari harakatga keltirdi.

Kam ta'minlangan, ijtimoii himoyaga muhtoj qatlam vakillarini turli imtiyoz va qarj'batlantirishlar bilan qo'llab-quvvatladi. Jumladan, aholining ijtimoii himoyaga muhtoj turli qatlamlarini qamrab olgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” yo'lga qo'yilishi ularning hayotini yangi bosqichga ko'tardi. Masalan, o'qish istagidagi yigit-qizlar “Yoshlar daftari”ga kirib, o'quv markazlari to'lovi yoki oliy ta'lim muassasasi kontrakt pulini to'lash imkoniga ega bo'ldi. Yo bo'lmasa, yolg'iz ayollar yoki kambag'al oila qizlari “Ayollar daftari” orqali tikuvchilik yoki kichik qandolatchilik markazlarini bunyod etib, davlatning qo'llovi bilan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. “Temir daftar” odamlarga moddiy-ma'naviy ko'mak berib, ularning temir irodasini bukayotgan, farovon hayotiga to'siq bo'layotgan uy-joy yoki boshqa birlamchi ehtiyojlarini hal etishda muhim vositaga aylandi.

Bugungi kunga kelib esa ijtimoii himoya sohasi butunlay yangi bosqichga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoii himoya milliy agentligi va barcha hududlarda “Inson” ijtimoii xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilishi sohani karrasiga rivojlantirdi. Shuningdek, 65 dan ortiq ijtimoii xizmat va yordam olish imkonini beruvchi ijtimoii karta tizimi joriy etilishi



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar



Naibaxon MAMADALIYEVA,
O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish
agentligi direktori
maslahatchisi

va inspeksiya jarayonlarini tezkor, ishonchli va shaffof amalga oshirish uchun laboratoriyalar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishni talab etadi.

Bunday sharoitda texnik jihatdan tartibga solish tizimining eng muhim vazifasi xavfsizlikni ta‘minlagan holda, ortiqcha to‘siqlarni kamaytirish va savdoni erkinlashtirishga xizmat qiladigan mexanizmlarni yaratishdan iborat. Ilgarigi amaliyotda bir tovarning ikki davlatda ikki karra sertifikatlashtirilishi, laboratoriya sinovlaridan qayta-qayta o‘tkazilishi ortiqcha vaqt va xarajatga sabab bo‘lgan bo‘lsa, bugungi yangicha mintaqaviy hamkorlik muhiti mazkur muammoni bartaraf etish uchun zarur huquqiy-texnik asoslarni shakllantirmoqda. Hozirgi vaziyatda “bir mamlakatda berilgan sertifikat ikkinchisida tan olinadi” tamoyilini joriy etish imkoniyati reallikka aylanmoqda va bu nafaqat savdoni yengillashtiradi, balki ishonchli texnik infratuzilmaning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Texnik reglamentlar va standartlarning uyg‘unlashuvi, qo‘shma nazorat tizimlari va umumiy sifat talabi standartlari esa mintaqaviy davlatlarining iqtisodiy integratsiyasida sifati va texnologik poydevor vazifasini bajaradi.

Uyg‘unlashayotgan yaxlit sanoat tizimi

Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashib borishi mintaqani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida bir necha yil avval tasavvurga sig‘magan darajada umumiy sanoat tarmoqlari ishga tushmoqda. Yakka davlatning ichki bozori bilan cheklanib qolgan ishlab chiqarish imkoniyatlari transchegaraviy hamkorlik orqali yangi quvvatlarga ega bo‘lmoqda. Qo‘shma korxonalar va sanoat klasterlari vujudga kelmog‘da. Mahsulotning bir qismi O‘zbekistonda ishlab chiqarilib, ikkinchi bosqichi Qozog‘istonda tayyorlanishi, tayyor mahsulotning Qirg‘iziston orqali tranzitda eksport qilinishi kabi zamonaviy kooperatsiya zanjirlari shakllanmoqda. Bu esa iqtisodiy o‘shini tezlashtirish bilan birga butun mintaqaviy sifat me‘yorlari va texnik talablarni uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.



BARCHA UCHUN TENG QOIDALAR

HAMMAGA FOYDA KELTIRADI

Ayniqsa, umumiy sanoat infratuzilmasi shakllanayotgan sharoitda standartlashtirish sohasi hal qiluvchi o‘ringa chiqmoqda. Elektrotexnika mahsulotlari bo‘yicha yagona standartlar yo‘q ekan, bir mamlakatda ishlab chiqarilgan elektr jihozini boshqa mamlakatda to‘siqsiz ishlatib bo‘lmaydi. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha umumiy talablar mavjud bo‘lmasa, qo‘shni davlatga oziq-ovqat eksport qilishda har gal yangi tekshiruvlar va qayta sertifikatsiyalashtirish talab etiladi. Qurilish materiallari uchun umumiy normalar bo‘lmasa, mamlakatlar o‘rtasidagi qo‘shma qurilish loyihalari qiyin kechadi. To‘qimachilik mahsulotlari uchun har xil texnik reglamentlar bo‘lsa, mintaqaviy brend yaratish va uni xorij bozoriga olib chiqish qiyinlashadi. Avtotransport vositalari xavfsizligi bo‘yicha standartlar uyg‘unlashmagan bo‘lsa, avtomobil qismlari, agregatlar va umumiy texnik xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi samarasizligicha qoladi.

Shu bois, texnik jihatdan tartibga solish tizimi — O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimi integratsiya jarayonining markaziy tayanchiga aylanmoqda. Bu tizim nafaqat me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiquvchi idora, balki mintaqaviy iqtisodiy integratsiyasining texnik asosini ta‘minlovchi institutlar yig‘indisidir. Ular standartlarni uyg‘unlashtirish, mahsulot va xizmatlar xavfsizligini ta‘minlash, o‘lchash vositalari birxilligini kafolatlash, laboratoriyalarning o‘zaro tan olinishi tashkil etish orqali transchegaraviy sanoat zanjirlarining barqaror ishlashini ta‘minlaydi.

Muhim strategik platforma

“Markaziy Osiyo plyus” formatlari mintaqamizdagi davlatlarni jahonning yetakchi siyosiy va iqtisodiy markazlari bilan tizimli, institutsional va barqaror muloqotga undayotgan, strategik ahamiyatga ega yangi



“Yangi Markaziy Osiyoning iqtisodiy arxitekturasini, sanoat tarmoqlari, transchegaraviy savdo yo‘laklari, qo‘shma zavodlar va sanoat klasterlari, umumiy energetika tizimlari aynan texnik jihatdan tartibga solish tizimi ustunligida quriladi. Sanoat kooperatsiyasi rivojlanishi uchun mahsulot sifatining bir xilligi, texnik talablarning uyg‘unligi, standartlar va sertifikatning o‘zaro tan olinishi zarur.”

diplomatik mexanizmlar sifatida tobora ahamiyat kasb etmoqda. “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo — AQSH”, “Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy Osiyo — Koreya”, “Markaziy Osiyo — Yaponiya” kabi platformalar faqat siyosiy yoki xavfsizlik masalalarini emas, balki texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, akkreditatsiya va sifat boshqaruvi kabi sohalarini ham qamrab olmoqda. Bu esa iqtisodiy integratsiya, savdo erkinligi, texnologik yangilanish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ham juda muhim. Zero, dunyodagi barcha yirik bozorlar va geoiqtisodiy makonlar o‘ziga xos texnik talablar, standartlar, xavfsizlik qoidalarini, ekologiya me‘yorlari va sifat indikatorlariga ega. Markaziy Osiyoning teng huquqli va raqobatbardosh ishtirokchisi sifatida global iqtisodiy tizimga integratsiyalanishi uchun esa aynan shunday platformadagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bu formatlar doirasida raqamlashtirilgan texnik reglamentlar yo‘nalishi eng ustuvor hamkorlik nuqtalaridan biriga aylangan. Ushbu jarayon texnik hujjat aylanmasini elektron tizimga o‘tkazish, texnik reglamentlarning

yagona raqamli platformalarini yaratish, sertifikatlashtirish jarayonlarini elektron amalga oshirish, laboratoriyalar o‘rtasida raqamli ma‘lumot almashinuvini joriy etish kabi zamonaviy mexanizmlarni qamrab oladi.

Shu tariqa “Markaziy Osiyo plyus” formatlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlarni tezlashtiruvchi, xalqaro standartlarni integratsiya qilishni yengillashtiruvchi, innovation yechimlar joriy etilishini rag‘batlantiruvchi va mintaqaning global iqtisodiy tizimdan munosib o‘rin egallashini ta‘minlovchi strategik maydon vazifasini bajarmoqda. Ushbu platformalar orqali O‘zbekiston texnik talablarni yangilash, sifati oshirish, xavfsizlikni ta‘minlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda jahon tajribasini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz ta‘kidlagan texnik hamkorlik faqat iqtisodiy ehtiyoj emas, balki Markaziy Osiyoning uzoq muddatli rivojlanish modelini belgilab beradigan asosiy strategik yo‘nalishdir.

Yangi Markaziy Osiyoning iqtisodiy arxitekturasini, sanoat tarmoqlari, transchegaraviy savdo yo‘laklari, qo‘shma zavodlar va sanoat klasterlari, umumiy energetika tizimlari aynan texnik jihatdan tartibga solish tizimi ustunligida quriladi. Sanoat kooperatsiyasi rivojlanishi uchun mahsulot sifatining bir xilligi, texnik talablarning uyg‘unligi, standartlar va sertifikatning o‘zaro tan olinishi zarur. Bir mamlakatda ishlab chiqarilgan ehtiyoj qism boshqa mamlakatdagi ishlab chiqarish liniyasiga mos kelishi, logistikadagi yuk tashish qoidalarini umumiy bo‘lishi, elektrotexnika vositalari standartlari birxilligi — bularning barchasi texnik jihatdan tartibga solishning bevosita vazifalaridir. Agar standartlar uyg‘unlashmasa, integratsiyaning texnik poydevori zaif bo‘ladi va savdo hamkorligida qator to‘siqlar yuzaga keladi.

Shunday ekan, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, Yangi Markaziy Osiyo — bu faqat siyosiy va iqtisodiy yaqinlashuv emas, balki “yangi sifat”, “yangi standart”, “yangi texnik madaniyat” asosida barpo etilayotgan ulkan mintaqaviy makondir. Bu sifat esa faqat texnik jihatdan tartibga solish tizimi orqali ta‘minlanadi. Texnik jihatdan tartibga solish — Markaziy Osiyoning texnik poydevori, uning iqtisodiy arxitekturasini ushlab turuvchi “ko‘rinmas ustun”, xavfsizlik tizimini ta‘minlovchi “e‘tibori qalqon”, sanoat kooperatsiyasiga jon bag‘ishlovchi “mexanizm”, savdo to‘siqlarini bartaraf etuvchi “kalit”, standartlar va sifat madaniyatini rivojlantiruvchi “dayver” sifatida xizmat qilmoqda.

Jarayon

Mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi va sanoatning barqaror rivojlanishi temir yo‘l transportining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, so‘nggi yillarda O‘zbekiston temir yo‘llarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi.

Bundan sakkiz yil avval yurtimizda temir yo‘l sohasi og‘ir inqiroz holatida edi. Tarmoq jiddiy kapital ta‘mir va modernizatsiyaga muhtoj, iqtisodiy rentabellik deyarli mavjud emas edi. Ko‘p yo‘nalishlar zarar bilan faoliyat yuritardi. Ko‘rsatiladigan xizmat sifati juda past, infratuzilma eskirgan, bu holat, tabiiyki, butun transport tizimining izchil rivojlanishiga to‘sqinlik qilardi. Qisqasi, temir yo‘l sohasi aniq reja va tayinli choralar ko‘rilmagani tufayli inqirozga yuz tutgan edi.

Bugun temir yo‘l transporti mamlakatimiz iqtisodiyotining eng zamonaviy, jadal rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biriga aylandi. Xususan, yuk tashish hajmining keskin oshishi milliy iqtisodiyotga sezilarli foyda keltirmoqda. Ishlab chiqarishning o‘shishi va eksport salohiyati mustahkamlanishiga keng yo‘l ochmoqda.

Shu bilan birga, sohada xizmat ko‘rsatish sifati ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Harakat talabini izchil yangilamoqda. Vokzallar va stansiyalar zamonaviy qiyofa kasb etmoqda. Sohaga ilg‘or raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Yo‘lovchilar va yuk jo‘natuvchilar



uchun har jihatdan qulay, xavfsiz sharoit yaratilmoqda.

Ayni paytda strategik ahamiyatga ega mazkur soha zamonaviy infratuzilma, aholi ehtiyojlari va iqtisodiyot tarmoqlariga mos yagona temir yo‘l tarmog‘iga ega. Mamlakatimizda 7400 kilometrdan ortiq temir yo‘l tarmog‘i mavjud. Ular orqali yuk va yo‘lovchi tashish xizmati barqaror amalga oshirilmoqda. Respublika hududining deyarli barcha yirik shaharlari, ko‘plab aholi punktlari temir yo‘l bilan bog‘langan. Zamonaviy transport kommunikatsiyalari va yuqori tranzit salohiyati tufayli O‘zbekiston bugun Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘lovchi xalqaro temir yo‘l tarmog‘ining muhim halqasiga aylandi.

Faol investitsiya siyosati va biznes uchun qulay shart-sharoitlar mamlakatimizning xalqaro savdo yo‘llari kesishgan markaz, transport xabi sifatidagi mavqeini mus-

tahkamladi. Shu bois, O‘zbekistonda yangi temir yo‘l tarmoqlarini qurish va modernizatsiya qilish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Alohida e‘tibor transport logistika salohiyatini yanada kengaytirish, undan samarali foydalanish, yangi transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish orqali tadbirkorlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytirish va eksport hajmini oshirishga qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”i qarori sohani isloh qilish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, tizimga xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Ayni paytda yo‘lovchi va yuk tashish parklari yangilanoqda. Temir yo‘l liniyalari

tizimli ravishda elektrlashtirilmoqda. Bu xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yo‘lovchilar xavfsizligini ta‘minlash, qatnov tezligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi o‘zgarishlar sohaning ma‘muriy boshqaruv tizimidan iqtisodiy rag‘batlantirishga asoslangan, texnologik jihatdan moslashuvchan modelga o‘tishiga imkon bermoqda. Shuning uchun ham bu borada belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga doimiy e‘tibor qaratilib, barcha ishlar qat‘iy nazorat qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, sohani chuqur transformatsiya qilish va tizimli modernizatsiyalash jarayoniga katta turtki beryapti.

Joriy yil 13-noyabr kuni davlatimiz rahbariga temir yo‘l sohasida bajarilayotgan ishlar va kelgusi yillar uchun rejalar taqdimot qilindi. Qayd etilganidek, temir yo‘l tarmog‘ida boshlangan keng ko‘lamli transformatsiya

jarayoni ijobiy natija bera boshladi. O‘tgan yilni tarmoq ilk bor sof foyda bilan yakunladi. Joriy yilning to‘g‘ri oyida sof daromad 800 milliard so‘mdan oshdi. Tranzit va yo‘lovchi tashish, eksport va investitsiya hajmi o‘shib bormoqda.

Bugun oldimizda turgan eng muhim vazifa “O‘zbekiston temir yo‘llari” Ajning transformatsiya jarayonini oxiriga yetkazish, ishlab chiqarish va xizmatlar tannarxini tushirishdan iborat, — deydi transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Ayni maqsadda tizimda katta xalqaro tajribaga ega kompaniyalar bilan hamkorlik qilinayapti. Joriy yil yakuniga ko‘ra, sohada juda katta sof foydaga erishish ko‘zda tutilgan. Bu natija bilan cheklanmay, aholi soni va iqtisodiyot o‘shishiga mos ravishda temir yo‘l transporti xizmatlarining sifati hamda qamrovini kengaytirish, tarmoqda xarajatlarini qisqartirishni davom ettirish zarur. Xizmatlar tannarxi tushirilib, albatta, iqtisodiyotimizga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.



Prezidentimiz yirik infratuzilmaviy loyihalar bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, mamlakatimizda 23 yo‘nalish bo‘yicha aholiga qulaylik yaratish vazifasi qo‘yildi. Bunda Toshkent viloyatini poytaxt, viloyat markazlarini uzoq yoki zich joylashgan aholi punktlari bilan bog‘laydigan elektropoyezdlar harakati uchun temir yo‘llarni qurish loyihalari amalga oshiriladi.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun 151 kilometr yangi temir yo‘l quriladi. 182 kilometr temir yo‘l elektrlashtiriladi. Shuningdek, 27 ta stansiya va 1000 kilometr yo‘l modernizatsiya qilinadi. Bu esa har kuni markazga qatnovchi aholi uchun katta qulaylik yaratadi.

Yangi yo‘nalishlarni qurish bilan birga harakat tarkibini ko‘paytirish ham rejalashtirilgan. Jumladan, respublika bo‘ylab shaharlar atrofida qatmaydigan poyezdlar harakatini faollashtirish maqsadida 40 ta yo‘nalishga qo‘shimcha yana 15 ta yangi yo‘nalish ochildi.

Shuningdek, joriy yil dekabrda boshlab Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasi bilan hamkorlikda 6 ta yuqori tezlikdagi elektropoyezd olib kelinadi. Ulardan birinchisi kelgusi yili “Toshkent — Urganch — Xiva” yo‘nalishida qatnovga qo‘yiladi. Bu orqali yo‘nalishda yo‘l vaqti hozirgi 14 soatdan 7,5 soatgacha qisqarishiga erishiladi.

Yig‘ilishda “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi bo‘yicha amaliy ishlarning borishi ham ko‘rib chiqildi. Prezidentimiz mazkur yo‘lining Markaziy Osiyoda transport bog‘liqligini oshirish va mamlakatimizning tranzit salohiyatini yanada mustahkamlashdagi strategik ahamiyatini alohida ta‘kidlab, qurilish ishlarning sifati ta‘minlash yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Lotfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Shu maqsadda yurtimiz vakillari 2021-yilda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLS, 2022-yilda 15 yoshli o‘quvchilarga mo‘ljallangan PISA, 2023-yilda 4- va 8-sinflar uchun TIMSS, 2024-yilda esa o‘qituvchi va maktab rahbarlarining TALIS xalqaro tadqiqotlarida ilk marotaba ishtirok etdi. Mazkur tadqiqotlar umumiy o‘rta ta’lim tizimini to‘liq xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini berib, boshqa mamlakatlardagi o‘qitish sifati bilan solishtirishga zamin yaratdi.



Sifat va samaradorlik

ISHTIROK VA NATIJA

O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH XALQARO DASTURLARIDA QATNASHISH TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

Bu yil o‘quvchilarimiz PISA tadqiqotida ikkinchi marta qatnashdi. Shu tariqa O‘zbekiston xalqaro tadqiqotlarning keyingi bosqichiga qadam qo‘ydi. Uzoq muddatli strategik rejalariga muvofiq, PISA — 2025, PIRLS — 2026 hamda TIMSS — 2027 xalqaro tadqiqotlarida ikkinchi marotaba ishtirok etish ta’limdagi o‘zgarishlar dinamikasini kuzatib borish, tahlil etish hamda zaruriy qarorlar qabul qilish uchun qimmatli ma’lumotlar olishga xizmat qiladi.

O‘n besh yosh — ayni balog‘at davri. O‘zini har ishga qodir deb biladigan, qoni jo‘sh urgan o‘g‘il-qizlarning kamolot pallasi. Ma’lumotlarga ko‘ra, PISA tadqiqotining paydo bo‘lishi xuddi shu toifadagi bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun tayyor yoki tayyor emasligini sinab ko‘rish g‘oyasi bilan bog‘liq. Chunki bu yoshdagi aksariyat o‘quvchilar majburiy ta’limni tugatish arafasida bo‘ladi. Tadqiqotda asosiy e’tibor o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlikni aniqlashga qaratiladi. Albatta, bilim darajasini aniqlashning bu usuli yangilik emas. PISA tadqiqotida an’anaviy testlardan farqli ravishda, o‘quvchilarning faqat faktlarni eslab qolishi emas, balki PISA kompetensiyalari doirasida amaliy fikrlash, tahlil qilish va turli manbalardan olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati baholanadi.

Xullas, PISA o‘quvchilar savodxonligini baholash xalqaro dasturi sifatida yuzaga keldi. U Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti g‘oyasi va shu tashkilot tomonidan boshqariladi. Bu tadqiqot 1997-yilda joriy etilgan. Uch yilda bir marta (2025-yildan to‘rt yilda bir marta) o‘tkazib kelinayotgan bu dasturning ilk sinovlarida (2000-yilda) 32 davlat o‘quvchilari qatnashgan. Hozirga kelib ishtirokchi mamlakatlar soni 90 dan oshdi. 2000-yilda o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan. Har gal bitta fan yo‘nalishiga ustuvor



e’tibor qaratiladi. Maqsad — o‘quvchilarning yod olgan bilimini emas, balki uni hayotda qo‘llay olish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qila olish qobiliyatini tekshirish. Shu ma’noda, PISA o‘quvchilarning katta hayotga tayyorgarligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni baholaydi.

PISA tadqiqoti davlatlar uchun ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda muhim omildir. Ya’ni o‘qitish tizimi qanday rivojlangani va qaysi jihatlarini kuchaytirishga e’tibor qaratish zarurligi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Uning tadqiqotlari tahlili asosida mamlakatlar ta’lim siyosatini qayta

ko‘rib chiqayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Xususan, 2022-yilda ilk bor PISA sinovlarida qatnashgan 15 yoshli o‘quvchilarimiz kutilgan natijaga erisha olmagan, O‘zbekiston o‘qitish tizimida yangi davr boshlandi. Ta’lim dasturi, darsliklarni yangilash ustida tizimli ishlar qilinayapti.

PISA — 2025 tadqiqotida tasodifiy tanlab olingan 233 ta maktabdan 15 yoshli 8655 o‘quvchi ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari 2026-yilda e’lon qilinishi rejalashtirilgan.

To‘g‘ri, birinchi tadqiqotda o‘quvchilarimizning olgan bilimini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi uncha yaxshi shakllanmagan, hatto, ayrimlarning kompyuterda ishlash ko‘nikmasi ham yetarli emas edi. Bu safar o‘quvchilarimiz ham texnik, ham ilmiy jihatdan rivojlangan. Savollarni ham o‘ziga ishongan holda yechganiga guvoh bo‘ldik, — deydi Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori, PISA tadqiqotining O‘zbekistondagi milliy loyiha menejeri Abduvali Ismoilov. — Birinchi bosqichda barcha maktab ro‘yxati shakllantiriladi va ular turli toifalarga ajratiladi. Shundan so‘ng xalqaro PISA standartlari asosida maktablar tanlanadi. Tanlangan maktablarda esa ishtirokchilar (asosan 15 yoshdagi o‘quvchilar) ham tasodifiy usulda aniqlanadi. Bu jarayon har bir o‘quvchining tadqiqotda ishtirok etish imkoniyati tengligini ta’minlaydi. Mazkur metodika PISA natijalarining xalqaro solishtirishlar uchun ishonchli, statistik jihatdan mustahkam va milliy tahlillarda qo‘llashga munosib bo‘lishini kafolatlaydi.

Aslida, PISA tadqiqotida ikkinchi marotaba ishtirok etish mamlakatimiz uchun katta natija. 2030-yilgacha ushbu tadqiqotda uch marta qatnashgan davlatlar qatoriga kirish rejalashtirilayapti. Kelgusidagi natijalarda

O‘zbekistonning ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, rivojlanish tendensiyasi saqlanishi va yaxshilanishiga umid qilamiz. Zero, buning uchun qator ishlar bajarilaypti. Birinchi navbatda, o‘qituvchilar malakasini oshirishga e’tibor berildi. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda 13 ta hududdagi pedagogik mahorat markazlari faoliyati transformatsiya qilindi. Yangicha malaka oshirish jarayoni joriy etildi. Xorijiy ilg‘or tajriba asosida 11 ta fan bo‘yicha “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etilib, 467 mingdan ortiq o‘qituvchining malakasi oshirilmog‘da.

2024-yilda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tarkibida Xalqaro tadqiqotlar markazi ochildi. Markazda PISA va boshqa tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish va ishtirok etish doirasida muallimlar malakasini oshirib borish, o‘quvchilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilish va olingan natijalarni chuqur tahlil etib, ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi ishlar bajarilaypti.

TALIS tadqiqotlari natijasi ham mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki u o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, pedagogik amaliyot sifati va ta’lim siyosati samaradorligini baholashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. TALIS tadqiqoti natijalariga ko‘ra, O‘zbekistondagi pedagoglar nisbatan yosh tarkibiga ega: ularning o‘rtacha yoshi — 39 yosh.

Keyingi yillarda yorug‘ kelajakka intilish uchun najot faqat ta’limda ekani umummilliy shiorimizga aylandi. Eng yaxshi investitsiya ta’limga kiritilgan sarmoya ekani haqidagi tushuncha ham bugun jamiyatning tafakkuriga yaxshi o‘tmashdi. Shu bois, iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakatimizning dunyodagi mavqegini mustahkamlashda ham sifatli ta’limga tayyanlaymiz.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“HUQUQIY MAHALLA” — DOLZARB MASALALARNING YECHIMI

Uchko‘prik tumani “Tojik” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Mamanazar ota Saidumarov oilasi 2018-yilda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida dehqon xo‘jaligi tashkil qildi. Belgilangan to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lab borgan dehqon xo‘jaligiga negadir 2020-yilda soliq idoralari tomonidan bir dunyo noreal qarzdorlik hisoblandi. Mamanazar otaning xunubi oshdi. Endi og‘zi oshga yetganda duch kelgan muammoga adolati yechim topish uchun ko‘plab idoralarga bordi, samarasi bo‘lmadi. Shundan so‘ng masalaga qonuniy yechim topish yuzasidan tuman adliya bo‘limiga murojaat qildi. Nihoyat uning “bosh og‘rig‘i”ga barham berildi.

— Mehnat faoliyatim bilan bog‘liq ish hujjatlarim yo‘qolgani sabab ikki yildan buyon nafaqaga chiqa olmayotgan edim, — deydi O‘zbekiston tumani “Qo‘rg‘oncha” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan Odnaxon Hamdamova. — Mahallamizga O‘zbekiston tumani adliya bo‘limi xodimlari kelib, huquqiy maslahatlar berayotganidan xabar topib, ularga murojaat qildim. Baraka topishin, manfaatimni ko‘zlab adliya bo‘limi Farg‘ona tumanlararo ma’muriy sudiga ariza kiritdi. Sudning 2025-yil 10-oktabrdagi hal qiluv qarori bilan ariza qanoatlantirildi va menga keksalik nafaqasi tayinlandi.

Farg‘ona shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida uyma-uy huquqiy muammolarni aniqlash davomida yana bir masala hal etildi. “Baraka fayz invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati hamda Farg‘ona viloyati hokimligi “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi o‘rtasida pudrat shartnoma tuzilgan. Unga muvofiq, “Baraka fayz invest” MCHJ tegishli qurilish ishlarini bajargan. Shundan so‘ng buyurtmachi, Farg‘ona viloyati hokimligi hamda “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi bajarilgan ishni qabul qilishi va xizmat haqini to‘lashi kerak edi. Ammo ular to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmagan. Bu tadbirkorning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Adliya bo‘limi mutasaddirlari tadbirkor, “Baraka fayz invest” MCHJ manfaatini himoya qilish maqsadida Farg‘ona tumanlararo iqtisodiy sudiga qarzdorlikni undirish uchun da’vo arizasi kiritdi. Sudda tadbirkor manfaatini himoya qilinib, “Baraka fayz invest” MCHJ foydasiga 263 million 257 ming so‘m qarzdorlik undirildi.

— Prezidentimiz 2024-yil 24-may kuni “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi farmonni imzolagan edi. Unga ko‘ra, “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida adliya organlari mahallalarga tushib, aholining huquqiy muammolarini aniqlashi va bartaraf etishi ko‘zda tutilgan, — deydi Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinborsari Farhod Ashmatov. — Shu kunga qadar loyiha doirasida kommunal xizmatlar ko‘rsatish sohasida 52 mingdan ortiq, sog‘liqni saqlashda 20 mingga yaqin hamda uy-joy va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish borasida 10 ming 855 ta muammo o‘rganildi. Ularga qonuniy yechim berildi. Aniqlangan holatlar bo‘yicha davlat idora va tashkilotlariga 416 ta taqdimnoma kiritildi. Farg‘ona viloyatidagi 144 mingdan ortiq xonadondan 131 mingtasi uyma-uy yurish evaziga o‘rganildi. Natijada aholida 152 mingdan ortiq huquqiy muammo borligi aniqlandi va bir qanchasi vakolat doirasida tezkor ijobiy hal etildi.

Farg‘ona viloyatidagi 19 ta tuman va shaharda joriy yilning yanvar-sentyabr oyida 171 ta mahallada “Huquqiy mahalla” loyihasi amalga oshirildi. Jarayonda 144 mingdan ortiq xonadondan 131 mingtasi uyma-uy yurish evaziga o‘rganildi. Natijada aholida 152 mingdan ortiq huquqiy muammo borligi aniqlandi va bir qanchasi vakolat doirasida tezkor ijobiy hal etildi.

Prezidentimizning “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi



farmonida “davlat organlari va boshqa byudjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas’ul bo‘lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat byudjetidan, davlat byudjetidan ajratilmagan bo‘lsa, ushbu tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xodim lavozim mashtidan 100 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi”, deb ko‘rsatilgan.

Rustamjon Ahmedov Marg‘ilon shahri maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limida raqamlashtirish bo‘yicha uslubchi lavozimida ishlaydi. Unga bir yildan oshiq vaqt mobaynida ushbu farmonda belgilangan ustama to‘lab berilmagan. Ushbu holat Marg‘ilon shahri adliya bo‘limi aralashuvi bilan sud tartibida ijobiy hal etildi. Fuqaro foydasiga 62 million 568 ming so‘m ustama to‘lovlari undirib berildi. Adliya xodimlari uyma-uy yurib, mahalla aholisi bilan yuzma-yuz muloqot qilaypti. Ular fuqarolarni qiynayotgan muammolarni o‘rganmoqda. Aniqlangan masalalar yuzasidan huquqiy maslahatlar berilmoqda. Ayni paytda so‘rovnomalar orqali aholining huquqiy savodxonlik darajasi tahlil qilinaypti. Natijaga qarab ularning huquqiy ongini oshirish maqsadida seminarlar, ochiq muloqotlar va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, “mahalla yetilligi” metodik qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu kabi tizimli ishlar natijasida fuqarolarning huquqiy muammolari tezkor va xolis hal etilaypti. Quvonarlisi, joylarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldi olinmoqda.

Shuningdek, viloyat mahallalarida 22 ming fuqaroga sayyor tartibda davlat xizmatlari ko‘rsatildi. Unda 5 mingdan ortiq aholining ma’lumotlari olinib, FHDYO bazasidan ularning yaqin qarindoshlari bilan ism-familiyasi mosligi tekshirildi. Jarayonda 2 ming 92 fuqaroga bepul yuridik yordam ko‘rsatildi. “Huquqiy mahalla” konsepsiyasi amalga oshirilayotgan mahallalarda yashab vafot etgan va ularning nomidagi mol-mulk merosxo‘rlariga o‘tkazilmagani sabab 898 ta meros ishi ochildi. Loyiha doirasida ana shunday ko‘plab huquqiy masalalar hal etilmoqda. Shu bilan birga, bunday tushunmovchiliklar yana ro‘y bermasligi uchun yurtdoshlarimizning huquqiy savodxonligi oshirilyapti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



INKLYUZIV TA’LIM — jamiyatga qo‘shilish kaliti

Sirojiddin Burhoniddinov 2015-yilda tug‘ilgan. U Nukus shahri Altin jagis mahallasida yashaydi. 7 yoshigacha Nukus shahridagi “Imkon” reabilitatsiya markaziga ega ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalangan. Keyinroq 7-8 yasharlighida davolangani sabab maktabga bormagan.

Nihoyat Sirojiddin 2024-2025 o‘quv yilida psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga asosan Nukus shahridagi 51-maktabning 1-sinfiga qabul qilindi. Hozir shu maktabning 2-sinfida inklyuziv ta’lim asosida o‘qishni davom ettirmoqda. Tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lishiga qaramay, o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qib, o‘rganmoqda. Shuningdek, yangi do‘stlar topishga ham ulgurdi. O‘qituvchilar ta’kidlashicha, Sirojiddin juda faol, o‘qishga qiziquvchan va jamiyatga tez moslashmoqda. — Sirojiddin maktabga kelganidan keyin o‘zgardi, — deydi maxsus pedagog Muhabbat Begdullayeva. — Ilgari u tortinchoq edi. Hozir esa sinfda faol, she’r yodlaydi, rasm chizadi. Ko‘zlarida ishonch paydo bo‘lgan.

Qahramonimiz esa Prezidentimiz bilan uchrashib, minnatdorlik bildirishni orzu qiladi.

— Yaxshi o‘qib, katta odam bo‘laman. Prezidentimizga rahmat aytaman. Chunki u kishi menga o‘qish imkoniyatini bergan, — deydi bolakay samimiy tabassum bilan.

Inklyuziv ta’lim tufayli 10 yashar Sirojiddin kabi bolalarning orzusi ushalmog‘da. Ular ham boshqa tengdoshlari kabi olg‘a intilib, jamiyatning faol a’zosiya aylanaypti.

Shu bois, inklyuziv ta’lim faqat nogironligi bo‘lgan bolalarni maktabga joylashtirish emas, balki jamiyat ongini o‘zgartirish jarayonidir. Har bir bolaga mehr bilan yondashish, qobiliyatiga ishonish va imkoniyat yaratish — haqiqiy insonparvarlik belgisi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Jamiyatdan tashqarida, to‘rt devor ichida yashashdan og‘iri bo‘lmasa kerak. Nukuslik Nurjamal Seytanova ham ana shunday sinovlar ichida qolishi mumkin edi. Shukrki, yaratilgan imkoniyatlar bolalarning yolg‘izlanib qolishiga yo‘l qo‘ymadi. 2018-yilda tug‘ilgan Nurjamal Nukus shahridagi 4-maktabga o‘qishga qabul qilindi.

Yengil darajadagi aqliy zaifligi bo‘lgan qiz tengdoshlari qatori ta’lim olmoqda. Maxsus pedagog yordamida sinfga tez moslashdi. O‘qituvchilar uning qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olib, darslarni o‘zlashtirishga yordam beryapti. Natijada Nurjamal sinfdoshlari bilan do‘stlashib, ayrim so‘zlarni talaffuz qila oladigan darajaga yetdi. Bundan qahramonimiz ham, yaqinlari va ustozlari ham birdek xursand.

— Bu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar natijasida Qoraqalpog‘istondagi 118 maktabda 208 ta inklyuziv sinf ochilgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi huzuridagi psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya raisi

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Shuningdek, biyennale inson va san'at o'rtasidagi aloqaning qay darajada chuqur va serqirra bo'lishini ko'rsatdi. Shubhasiz, Buxoro biyennalesi nafaqat xalqaro madaniy tadbir, balki shahar va undagi odamlar uchun ruhiy hamda intellektual boylik yaratolgan muhim voqeelik sifatida tarixda qoladi.



Biyyenmalaning san'at va madaniyat "dasturxon"i sifatida tashkil etilgani tashrif buyurrgan har bir odamni o'ziga yanada yaqinlashtirdi. Ko'rgazmalar, antiqa tomoshalar, musiqa, gastronomik loyihalar va mumalliflarning mahorat darslari bir "dasturxon" atrofida yig'ilgan san'at istiqbolchilari bilan taqdim etildi. Ushbu jarayonga har kim o'z hissasini qo'shdi, bu "masalliqlar"dan esal qalbar taskin topdi.

Buxoro doimo savdo-sotiq, ma'rifiy va ma'naviy aloqalar markazida turgan. Bu shahar qadimdan karvon yo'llari chorrahasida joylashgani uchun turli millatga mansub

Har bir joyda mediatorlar ishladi. Boisi
ularning vazifasi tashrif buyuruvchilarga nafaqat
asarlari bilan tanishish, balki ularni muhokama
qilish, fikr yuritish va chuqurroq anglashga

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri. Buyuk Turon ko'chasi. 41-uy.

MUASSIS:
iston Respublikasi
rlar Mahkamasi

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 21:00